

Bulung'ur tumanida 2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisobot

Aholi murojaatlari bo'yicha

Avvalo aholi murojaatlari bilan ishlash masalasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'tgan davr mobaynida tumandagi Xalq qabulxonasida **46 marotaba** haftaning dushanba kunlarida belgilangan qabullar o'tkazildi. Bundan tashqari, **sektor rahbarlari** tomonidan tasdiqlangan reja grafik asosida jami **232 marotaba** sayyor qabullar o'tkazilib, qabullarda jami **1176 ta** murojaatlar kelib tushgan. Shundan, **971 tasi (83%)** ijobiy hal etilgan. Jumladan, **1-sektor** hududida **58 marotaba** sayyor qabullar o'tkazildi. Ularda **1298** nafardan fuqaro ishtirok etgan bo'lib, **1242 ta** murojaatlar qabul qilingan. Shundan, **820 ta** murojaat ijobiy hal qilingan bo'lsa, **407 ta** murojaatga tushuntirishlar berilgan hamda **15 ta** murojaat bajarilish jarayonida turibdi.

Shuningdek, Bulung'ur tumani mas'ullari ishtirokida 3 marta, xususan, so'nggi bor joriy yilning **14 noyabr kuni** "Ochiq muloqot" ko'rsatuvi bo'lib o'tgan edi. Albatta, barchada "ko'rsatuvdan ko'rsatuvgacha nima o'zgardi?", degan savol tug'ilishi tabiiy.

Ko'rsatuv davomida **25 nafar** fuqaro tomonidan jami **34 ta** masala yuzasidan murojaatlar bildirilgan edi.

Avvalo murojaatlarni mahallalar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, aksariyat mahallalardan **bir yoki ikki nafar** fuqarolar tomonidan murojaatlar bildirilgani holda, tumanning Elobod mahallasidan **6 nafar** fuqaro tomonidan jami **10 ta** masala

yuzasidan murojaat yo‘llandi. Ushbu raqamlar mazkur mahallaga alohida e‘tibor qaratishimizni taqozo etadi.

Qolaversa, murojaatlarni sohalar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, elektr ta‘minoti masalasida **4 ta** murojaat bo‘lib, ushbu raqam oldingi ko‘rsatuvlarga nisbatan kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga, yo‘l ta‘miri borasida **6 ta** hamda suyultirilgan gaz ta‘minoti borasida **8 ta** murojaat bildirilgan. Bu ham ushbu sohalarga alohida yondashuvni talab qiladi.

Har bir murojaat ijrosi uchun aniq muddat belgilanib, ijroga yo‘naltrildi. Ijro muddati tugashi bilan tuman hokimligi ishchi guruhi tomonidan joyiga chiqqib, har bir murojaatchi bilan yuzma-yuz uchrashgan holda ijro holati o‘rganildi. Ijobiy hal bo‘lmagan, ayrim murojaatlar qaytadan ijroga yo‘naltirildi.

Natijada **18 ta** murojaat ijobiy hal etilgan bo‘lsa, **15 ta** holatda murojaatning qanday asosida va qachon bajarilishi borasida huquqiy tushuncha berilgan. **1 ta** holatda murojaatchi ko‘rsatilgan manzilda istiqomat qilmasligi ma‘lum bo‘ldi va bu kishi bilan bog‘lanishning imkoni bo‘lmadi. Biroq, unda ko‘tarilgan muammo haqiqatda mavjud va ushbu masalani ijobiy hal etish choralari ko‘rilmoqda.

Kezi kelganda yil boshidan bugunga qadar aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida amalga oshirilgan, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega **yirik loyihalardan** ayrimlariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsam:

Bulung‘ur podstansiyasiga **40** ming kV.lik, **Ibn Sino** podstansiyasiga **6 300** kV.lik va **G‘alaba** podstansiyasiga **6 300** kV.lik transformatorlar qo‘shimcha o‘rnatildi. Natijada **28 ming kVa.** qo‘shimcha quvvat imkoniyati yaratildi.

Tuman aholisi va sanoat korxonalarida uzluksiz elektr ta'minoti bo'lishi uchun **Bulung'ur** podstantsiyasidan tumandagi **G'o'bdin** massiviga **110 kVli** ikki zanjirli tarmoq tortish, **1 dona** podstantsiya qurish va **2 dona** 25 MVA.dan **jami 50 MVA** kuchlanishdagi transformatori o'rnatish (**65,0 mlrd so'm**) maqsadida ishlar boshlandi.

Tumanning Zarafshon agrofirma hududida **2000 gektar** maydonni o'zlashtirish loyihasi doirasida **30 mlrd.so'm.** mablag' evaziga **Farmontepa nasosi** qurildi. Hozirda lalmi maydonlarni so'g'oriladigan yer toifasiga o'tkazilib, hududdagi fuqarolar va tadbirkorlarga auksion orqali ajratib berilmoqda. Hozirda yaratilgan ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish choralari ko'rilmoqda.

Bugunga qadar "Yangi O'zbekiston" massivida jami **31 ta 5 qavatli 678 xonadonli** foydalanishga qabul qilingan.

2025-yil yanvar oyida **4 ta ko'p qavatli 93 xonadon** foydalanishga topshiriladi. 2025-yilda **14 ta 5 qavatli 293 xonadonli** uy-joylar foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, **7 mlrd.so'mga** 3 qavatli mahalla binosi, 1 ta oilaviy poliklinika hamda mini stadion qurish ishlari bajarildi.

Massivdagi aholini toza ichimlik suvi va oqova suv tarmog'i bilan ta'minlash maqsadida **36 mlrd. 700 mln. so'mga** hududda markazlashgan **1 ta** suv inshooti va **1,2 km.** ichimlik suv tarmog'i, vaqtinchalik **1 dona** oqova suv inshooti qurish ishlari bajarildi.

Tuman markazidagi **7 ta mahallarda** ko'p-qavatli uy-joylar va ijtimoiy soha ob'ektlari uchun **10 mlrd. so'm** mablag' evaziga **13,6 km** oqova suv tarmog'i tortish ishlari bajarildi. Ishlar yakuniga yetishi bilan tumanning oqova suv xizmati bilan ta'minlanganlik darajasi **12,3 %** dan **35,2 %** ga yetkaziladi.

Xalqaro ahamiyatdagi M-39 avtomobil yo‘lining 1 046 km. qismida **16 mlrd. so‘m** mablag‘ evaziga **sel toshqin suvlarini o‘tkazuvchi ikki mosli ko‘prik** qurilish ishlari yakunlandi.

Qolaversa, joriy yildan boshlab tumandagi boshqoli don ekilgan **6 040 gektar** maydonlarni meva-sabzavotchilik, kartoshkachilik va bog‘dorchilikka ixtisoslashtirish belgilandi. Bu ham bo‘lsa, aholini serdaromad qilib, bandligini oshirishga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratib beradi.

Bundan tashqari:

- hozirda tumanda 2019-2025-yillarga mo‘ljallangan sig‘imi **100,0 mln. metr kub** bo‘lgan **“Bulung‘ur” suv omborini** qurish ishlari davom etmoqda.

Shuningdek, tuman hududidan o‘tuvchi 4R-47 **“Bulung‘ur sh. – Urgut sh.”** avtomobil yo‘lining 2 km qismida **82,0 mlrd.so‘mga** tonnel qurilish ishlari olib borilmoqda.

Umuman olganda,

1. **Investitsiya** dasturi bo‘yicha **13 ta** loyihaga **72,3 mlrd.so‘m** ajratilgan bo‘lib, Shundan, 6 ta ijtimoiy soha ob‘ekti, 3 ta oqova suv tarmog‘i qurish, 3 ta suv xo‘jaligi ob‘ekti, 1 ta tonnel qurish belgilangan. Hozirgi kunda **12 ta** ob‘ekt foydalanishga topshirilgan.
2. **“Ochiq byudjet”** dasturi bo‘yicha **13 ta** loyihaga **16,3 mlrd.so‘m** ajratilgan bo‘lib, Shundan, **8 ta** MFYda jami **24,5 km** ichki yo‘llarni asfalt qilish, **3 ta** ijtimoiy soha ob‘ekti, 1 ta F.Jonxo‘roz liniyasini ta‘mirlash, **1 ta** qabriston obodonlashtirish ishlari bajarildi.
3. **Maxsus dastur** bo‘yicha **8 ta** loyihaga **8,3 mlrd.so‘m** ajratilgan bo‘lib, Shundan, **2 ta** ijtimoiy soha ob‘ekti, **2 ta** suv inshooti va tarmog‘i tortish, **3 ta** MFYda **3 dona TP** va

9,3 km tarmoq tortish, **7 ta** MFYda jami **6,3 km** ichki yo‘llarni asfalt qilish, **1000 dona** gaz balon jo‘mraklarini almashtirish ishlari bajarildi.

4. Samarqand viloyati hokimining tashabbusi bilan Fozil Yo‘ldosh MFYdagi **5-maktab** mukammal ta‘mirlandi, Fozil Yo‘ldosh **ma‘daniyat uyi** va 9-sonli **musiqa maktabi** joriy ta‘mirlandi hamda Yangi **mahalla binosi** va **amfiteatr** qurildi.

1. Elektr ta‘minotida:

- **270 dona** taransformatorlar joriy ta‘mirlandi,
- **24 dona** yangi transformatorlar o‘rnatildi,
- **232,5 km** tarmoq daraxt shoxlaridan tozalandi.

2. Gaz ta‘minotida:

- **1,5 km** gaz tarmog‘i tiklandi,
- **1 ta** gaz taqsimlash punkti mukammal ta‘mirlandi,
- **1578 ta** xonadon ikki boskichli tizimga o‘tkazildi,
- **0,6 km** gaz quvurlarini rekonstruksiya qilindi,
- **165 ta** gaz taqsimlash punktlari ta‘mirlandi,
- **55 km** gaz quvurlarni bosim ostida sinaldi,
- **40 km** yer osti quvurlari tekshirildi,
- **10 km** gaz quvurlarni bo‘yoqlash ishlari amalga oshirildi,
- **36 731 ta** aholi xonadonlaridagi mavjud maishiy ballonlar hatlovdan o‘tkazilib, ehtiyoj aniqlandi.

Bundan tashqari, “Yangi O‘zbekiston” massivida 800 metr tarmoq tortildi, **5 ta** gaz taqsimlash punkti o‘rnatilib, **12 ta** ko‘p qavatli uylardagi **264 ta** xonadon tabiiy gaz bilan ta‘minlandi.

3. Suv ta‘minotida:

- Tumanda mavjud suv inshootlarning **22 tasida** ta'mirlash ishlari amalga oshirildi,
- **10 dona** energiya tejamkor yer osti nasoslar o'rnatildi,
- **11 dona** elektra ShIT jixozlari o'rnatildi,
- **9 dona** suv minorasi ta'mirlandi,
- **23 dona** zadviyka jixozlari o'rnatildi,
- suv ko'tarib berish trubalarining eskirgan **670 metr** qismi yangisiga almashtirildi,
- **14,3 km** ichimlik suv tarmoqlarini tortish ishlari amalga oshirildi,
- **3 dona** yangi suv inshooti qurildi.

Bundan tashqari, **homiylilik va hashar asosida:**

- Lalmikor MFY Nurli Bo'ston qishlog'ida, Gulzor MFY Yangi Erganakli qishlog'ida, O'roqli MFY Katta O'roqli qishlog'ida jami 3 ta suv inshooti qurilib, 6,6 km. tarmoq tortildi, energiya tejamkor yer osti nasoslari o'rnatildi. Samarqand MFY Nodira ko'chasida va Bulung'ur MFY Yusuf Xosxojib ko'chasida eskirgan tarmoqlar yangisiga almashtirildi.

Yo'l ta'miri bo'yicha:

3 mlrd. 665 mln so'm mablag' evaziga umumfoydalanishdagi **75 km** yo'llar joriy ta'mirlandi.

Tumanda jami **37 km.** yo'llar asfaltlashtirildi, **186,8 km** ichki tuproq ko'chalari shag'allashtirildi.

Mahalliy byudjet hisobidan **300 tonna asfalt** harid qilinib, tuman markazidagi **Bulung'urshoh ko'chasi** va **Fozil yo'ldosh ko'chalari** joriy ta'mirlandi.

Tuman markazidagi ko'chalarda nogironligi bor fuqarolar uchun **2 ta** chorraxada jami **8 ta ovozli svetofo**r o'rnatildi.

2025-yilda quyidagi ishlarni bajarish belgilangan

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli qaroriga asosan “Ochiq byudjet” axborot portalining 2-mavsumida

1. Xo‘jabachcha, Xo‘jamazgil, Nebo‘sa mahallalarida **9 km. asfalt** qoplamasi yotqizish.
2. O‘roqli, Suluvqo‘rg‘on mahallalarida qishloq qabristonlari hududini obodonlashtirish.
3. Isori O‘roqli MFYdagi 57-maktabga 120 o‘rinli qo‘shimcha bino qurish.
4. Markaziy shifoxonaga 2 ta zamonaviy lift (TQSh va O‘QTKM hamda Tug‘ruq uyiga) o‘rnatish.
5. Chagal-1 MFYdagi Albasit arig‘ini 1600 metr betonlashtirish ishlari bajarilmoqda.

PQ-407 sonli Dastur asosida Davlat ahamiyatidagi 4R-47 “Bulung‘ur shahri-Urgut shahri-M-39 a/y” avtomobil yo‘lining **3-18 km** oraliq qismini joriy ta‘mirlash rejalashtirilgan.

“Yangi O‘zbekiston” massivida Investitsiya dasturi asosida 330 o‘rinli **1 ta** umumta‘lim maktabi hamda 12x24 o‘lchamdagi sport zali quriladi.

Bulung‘ur tumanidagi **4, 38 va 58-umumta‘lim maktablari, 9-sonli maktabgacha ta‘lim tashkiloti** rekonstruksiya qilinadi, **54-maktab** 320 quvatli mukammal ta‘mirlash

“Niyozmat” MFY Niyozmat qishlog‘ida **120 o‘rinli** yangi maktabgacha ta‘lim tashkiloti quriladi.

“Mingchinor” MFYdagi 140 o‘rinli **23-sonli**, “Mingtepa” MFYdagi 120 o‘rinli **17-sonli** maktabgacha ta‘lim tashkilotlari mukammal ta‘mirlanadi.

“G‘o‘bdin” MFY Qarovultepa qishlog‘ida **4 km** suv tarmog‘i tortish va **1 dona** suv inshoti qurish ishlari bajariladi.

“**Guliston**” MFY hududidagi eski ko‘p qavatli uy-joylarni o‘rniga 0.6 ga yer maydonida **6 ta** ko‘p qavatli uy-joylar qurish rejalashtirilgan.

Shuningdek, mahalliy byudjet hisobidan **650 tonna asfalt** harid qilinib, tuman markazidagi **O‘zbekiston ko‘chasi** joriy ta‘mirlanadi.

2024 yil 7 avgustdagi Vazirlar Mahkamasining Rayosat bayoniga asosan 18-maktabda **7 mlrd. 200 mln. so‘m** mablag‘ evaziga **600 o‘rinli** qo‘shimcha bino quriladi.

Davlatimiz rahbarining 2024 yil 29 noyabrda qabul qilgan “Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “**Samarqand viloyatining tuman (shahar)larini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar dasturi**”ga ko‘ra, “Bulung‘ur – Samarqand shahri - Juma – Kattaqo‘rg‘on shahri” yo‘nalishida **elektr poezdi** qatnovini yo‘lga qo‘yish belgilangan. Buning uchun zamonaviy poezd vagonlari olib kelish, oraliq to‘xtash temiryo‘l bekatlari infratuzilmasini yaxshilash rejalashtirilgan.